

ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION LOYIHALARI

Ismatov Rustam Yusufovich

Buxoro Xalqaro Universiteti iqtisodiyot fakulteti

1- kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, milliy iqtisodiyot va uning alohida hududlari raqobatbardoshligini ta'minlashning eng muhim omillaridan biri bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari innovatsion faoliyatini rivojlantirishning asosi bo'lgan innovatsion faoliyat infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy jihatlarini tahlil etilgan. Innovatsion faoliyat infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida mavjud muammolar va ularni hal etish yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Tayanch so'zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion faoliyat infratuzilmasi, innovatsion tadbirkorlik, milliy innovatsiya tizimi, modernizatsiyalash.

Zamonaviy iqtisodiyot yangi mahsulot, materiallar, texnologiya, uskunalarni yaratishni ta'minlovchi ilmiy, ilmiy-texnikaviy va innovatsion faoliyatga asoslanishi zarur. Innovatsiyalarni yaratish va joriy etishda yangi imkoniyatlar va mexanizmlarni izlab topish xo'jalik yuritish va boshqaruvni takomillashtirish muammosi bilan uzviy bog'liq holda alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda innovatsion tadbirkorlikning o'sishi ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi va transformatsiyalashuvining zaruriy elementi hamda raqobat ustunligini ta'minlovchi asosiy resurs sifatida qaralmoqda. Xalqaro tajriba mamlakatda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uning infratuzilmasi va qo'llabquvvatlash tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda¹.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonini amalga oshirish mamlakat sanoat salohiyatini sifat jihatdan o'zgartirish, innovatsiyalar bozorini rivojlantirishga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishini ta'minlash bilan uzviy bog'liq bo'lib, tadbirkorlarning innovatsion faolligi samarali iqtisodiy o'sishning eng muhim omillaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda fan va texnologiyalar taraqqiyotini o'zaro muvofiqlashtirish, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni yaxshilash, fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish bo'yicha qator choratadbirlar ishlab chiqildi va yo'lga qo'yildi. Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish

¹ Rayxina A.V. Sovershenstvovanie mexanizmov upravleniya innovatsionnoy deyatelnostyu. / «Partnerstvo biznesa i obrazovaniya v innovatsionnom razvitii regiona»: Sbornik nauchnykh trudov X Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii. – Tver: «Dokument-Sentr», 2021. –S. 273–276.

bo'yicha davlat dasturlari qabul qilindi, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish davom ettirildi.

Fan bilan ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish, innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayonlarini jadallashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muntazam tashkil etiluvchi Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkasi davlat, fan, ishlab chiqarish va biznesni samarali birlashtirish imkoniyatini yaratib beradi. Yarmarkaning asosiy maqsadi ilmiy hajmdor, yuqori texnologik ishlab chiqarishning o'sishi uchun shartsharoit yaratish, jumladan, kichik innovatsion tadbirkorlik va biznesning barqaror rivojlanishi, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning dolzarb muammolarini hal qilish uchun sharoitlar yaratish, korxonalarining innovatsion faolligi oshishi, yuqori texnologiyalar milliy bozorining shakllanishiga ko'maklashish hisoblanadi².

Yarmarkada taqdim etilgan innovatsion va ilmiy-texnik loyihalar va ishlanmalarning katta qismi import o'rnini bosishni ta'minlaydigan, energiya jihatidan samarali va resurslarni tejaydigan yangi materiallar, mashinalar, preparatlar va ilmiy hajmdor mahsulotlarni eksport qilishga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqlidir.

Shu bilan birga, hali mamlakatimizda innovatsion faoliyatni jadallashtirish, tadbirkorlik sub'ektlari innovatsion faolligini oshirishga salbiy ta'sir etuvchi omillar mavjud bo'lib, ular qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- innovatsion faoliyatni amalga oshirishning barcha bosqichlari uchun tizimli, aniq tuzilishga ega qonunchilik bazasining takomil emasligi;
- «tadqiqot-ishlanma-ishlab chiqarish-sotish» zanjirini amalga oshirish imkoniyatining ishlab chiqaruvchilar bilan ilmiy-tadqiqot olib boruvchilar o'rtasidagi integratsiya rivojlanmaganligi sababli cheklanganligi;
- innovatsion faol korxonalar faoliyati uchun maqbul sharoitlar va muhitning yetarli darajada shakllanmaganligi;
- innovatsion infratuzilmaning ayrim bo'g'inlarini rivojlantirish zaruriyatining mavjudligi hamda innovatsion infratuzilma sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning mavjud emasligi³.

Ushbu omillar tahlili tadbirkorlik tuzilmalarining innovatsion faolligini rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani shakllantirishda muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

Jahon innovatsiyalar bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida innovatsiya infratuzilmasining ahamiyati tobora ortib bordi. Bunday holat innovatsion faoliyat infratuzilmasini shakllantirishning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion faoliyat infratuzilmasi

² Sindarov Sh.E. Innovatsion sohada kichik korxonalar faoliyatini jadallashtirish. // «Birja-Ekspert», T., 2021, 3-son.

³ Qodirov A.M. va b. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish. / Monografiya. – T.: «Iqtisodiyot», 2020. –13-b.

kategoriyasi turlicha talqin etiladi, ushbu mazmunda qo'llaniladigan atamalar ham turlicha, jumladan, ilmiytadqiqot infratuzilmasi, fan infratuzilmasi, innovatsion infratuzilma, texnologiyalarni tijoratlashtirish infratuzilmasi va h.k. Natijada iqtisodchilar tomonidan innovatsion faoliyat infratuzilmasiga berilgan ta'riflar bir-biridan farqlanadi.

Umumiy tizimiy muammolar guruhi muammolarining vujudga kelishi hanuzgacha innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning yaxlit tizimi shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- innovatsion tadbirkorlar va ularning investorlarini qo'llab-quvvatlash tushunchasi bo'yicha yakdillik mavjud emas;
- innovatsiya risklarini sug'urtalash tizimi mavjud emas;
- davlat innovatsiya siyosati uzviylik xususiyatiga ega emas;
- innovatsion tadbirkorlikda davlat buyurtmalari tizimi mavjud emas;
- yangi tadqiqot va ishlanmalarga bo'lgan ichki talab rag'batlantirish tizimi shakllanmagan;
- mamlakatda innovatsion faollik markazlari shakllanmagan.

Strategik rivojlanish muammolari qatoriga intellektual huquqlarni korxonaga biriktirishga sarflanuvchi xarajatlarni qoplash tizimi mavjud emasligi, resurs va energiya tejashni rag'batlantirish tizimi mukammal emasligi, innovatsion faoliyatning ijtimoiy ahamiyatiga yetarli e'tibor berilmasligini kiritish mumkin.

Innovatsion faoliyat infratuzilmasi faoliyatidagi yana bir muhim muammolar guruhi innovatsion faoliyatni marketing jihatidan qo'llab-quvvatlash bo'g'inlarining yaxshi rivojlanmaganligidir. Marketing bozor muhitida faoliyat ko'rsatayotgan har bir korxonaga iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi, xalqaro va mamlakatlararo raqobatning kuchayishi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar uchun marketing strategiyalarini ishlab chiqish dolzarbligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan muammolarning ushbu guruhi quyidagilarni qamrab oladi:

- marketing xarajatlarini kompensatsiya qilish ko'zda tutilmagan;
- innovatsiyalar bozorini o'rganuvchi tuzilma mavjud emas;
- innovatsion mahsulotni bozorga kiritish tajribasi mavjud emas;
- innovatsion talabni o'rganish va rag'batlantirish mexanizmi ishlab chiqilmagan;
- iste'molchilar bilan teskari aloqa mexanizmi infratuzilmaga kiritilmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, innovatsion faoliyat infratuzilmasi aniq maqsadlar, tamoyillar, turli metodlar, mexanizmlar va ixtisoslashgan institutlar asosida ishlab chiqilgan innovatsion tadbirkorlikni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tadbirlarining muvozanatga solingan tizimini aks ettirishi lozim.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirish vaqtida davlatning innovatsion tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatiga aralashuvi kuchli, qat'iy, keng miqyoslarda bo'lishi lozim,

bozor islohotlarining amalga oshirilishiga ko'ra u asta-sekin erkinlashib boradi. Davlat tomonidan innovatsion faoliyat infratuzilmasini yaratishda quyidagi vazifalarni hal etish ustuvor bo'lishi lozim:

– mahalliy ishlab chiqarish tomonidan innovatsiyalarning «yuqori talabliligini» oshirishning tashkiliy va iqtisodiy mexa nizmlarini yaratish, fundamental fanlar, muhim amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarning jadal rivojlanishini ta'minlash;

– ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatning normativ-huquqiy asosini takomillashtirish;

– ilmiy-texnik majmualarning bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashuvi, fan, texnologiya va texnikani rivojlantirish maqsadlarida davlat va xususiy kapitalning o'zaro bog'liqligini ta'minlash;

– davlatning tartibga solish va bozor mexanizmlarining oqilona uyg'unligini, fan, texnologiya va texnikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni bevosita va bilvosita rag'batlantirish tadbirlarini yaratish;

– fan va texnika sohasida oliy malakali ilmiy va muhandis xodimlarni tayyorlash tizimini mukammallashtirish; – oliy maktabning ilmiy-tadqiqot sektorini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rayxina A.V. Sovershenstvovanie mexanizmov upravleniya innovatsionnoy deyatel'nostyu. / «Partnerstvo biznesa i obrazovaniya v innovatsionnom razvitii regiona»: Sbornik nauchnykh trudov X Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. – Tver: «Dokument-Sentr», 2021. –S. 273–276.

2. Sindarov Sh.E. Innovatsion sohada kichik korxonalar faoliyatini jadallashtirish. // «Birja-Ekspert», T., 2021, 3-son.

3. Qodirov A.M. va b. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish. / Monografiya. – T.: «Iqtisodiyot», 2020. –13-b.

4. www.birja.uz

5. www.norma.uz

6. www.lex.uz

7. www.stat.uz